



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA IMKONIYATI CHEKLANGAN
BOLALAR BILAN TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINI
ADABDATSIYA QILISH**

Soataliyeva Durdona Jamoliddin qizi

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali 1-bosqich
magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at haqida tushuncha beriladi. Boshlang'ich sinflarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan metodlar haqida va pedagogik mahorat haqida, batafsil so'z olib boriladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, pedagogik mahorat, multimedia, konsepsiya, inklyuziv ta'lim, adaptatsiya, art-terapiya.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishda, tasviriy san'at o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat talab qilinadi. Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'quvchilarning ishlarida kuzatilayotgan xatolarni tahlil qilib borish va ularga mos metodik yo'nalish va yordam berib borish tasviriy san'at ta'limining barcha sohalari (faoliyat turlari) bo'yicha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Shuningdek, kamchiliklarning faoliyat turlari, janrlar bo'yicha klassifikatsiyalab borish mavjud kamchiliklarni batratarf etishga yo'naltirilgan metodikani to'g'ri tanlash imkonini beradi. Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda

ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishda yangi, zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: siklografiya- harakat



kinematikasini qayd qilish, okulografiya- ko'z harakatlarini qayd qilish, multiplikatsiyalash- grafik tasvirlarni bajarish ketma-ketligini qayd qilish kabilar kiradi. Albatta, tasviriy san'at darslari yanada sifatli va samarali bo'lishida multimedia texnologiyalarining ham o'rni katta. Multimedia vositalari (multimedia – ko'pvositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia-gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Bugungi kunda ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng imkoniyat yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at darslari ijodiy fikrlash, estetik did, mayda motorika, emotsional rivojlanish va ijtimoiy moslashuvni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, imkoniyati cheklangan bolalar bilan tasviriy san'at mashg'ulotlarini moslashtirish (adaptatsiya qilish) texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi uchun asosiy metodik talab hisoblanadi. Tasviriy san'at darslarini to'g'ri moslashtirish nafaqat bolaning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, balki uning jamoadagi o'rnini mustahkamlaydi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Mazkur referatda boshlang'ich ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tasviriy san'at mashg'ulotlarini adaptatsiya qilish texnologiyalarining mazmuni, turlari va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Adaptatsiya texnologiyalarining mazmuni

Adaptatsiya — bu o'quv jarayonini bolaning individual imkoniyatiga moslashtirish, o'qitish metodlarini, shakllarini va vositalarini bolalarning psixofiziologik xususiyatlariga ko'ra qayta tashkil etish jarayonidir. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida adaptatsiya texnologiyalari o'quvchilarning jismoniy, aqliy, ko'rish, eshitish yoki nutqiy cheklovlarini inobatga olib ishlab chiqiladi. Adaptatsiya jarayonining asosiy maqsadi — har bir bolaning tasviriy san'at mashg'ulotida faol ishtirok etishini ta'minlash, uning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va o'quv jarayonidan zavq olishiga sharoit yaratishdir.



Tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llaniladigan adaptatsiya texnologiyalari. Multisensor texnologiya bolada bir nechta analizatorlar — ko'rish, eshitish, sezish, harakat orqali bir vaqtning o'zida idrokni shakllantiradi. Bunday texnologiya ko'rishida muammosi bor, intellektual rivojlanishida cheklov bo'lgan bolalar bilan ishlashda ayniqsa samarali. Ushbu texnologiyada qumli qog'oz, shag'amli karton, relyefli materiallar, ip, plastilin, qalin konturli rasmlar kabi ko'p sezgili vositalar qo'llaniladi. Bu vositalar bolalarning tasviriy faoliyatini qiziqarli, yengil va tushunarli qiladi.

Differensial ta'lim — bu har bir bola imkoniyati va rivojlanish darajasiga mos topshiriq berish texnologiyasi. Masalan, intellektual rivojlanishida cheklovi bo'lgan bola kontur asosidagi rasmni bo'yashi mumkin; jismoniy imkoniyati cheklangan bola esa qalin cho'tkalar yordamida katta formatda bo'yashni bajaradi; rivojlanishi yaxshi bo'lgan bola esa mustaqil kompozitsiya chizishi mumkin. Tasviriy san'atda vizual ko'rsatmalar — eng samarali adaptatsiya vositalaridan biridir. Bu texnologiyada rasm chizish jarayoni bosqichma-bosqich tasvirlar, plakatlari, loyihalar, video-instruksiya orqali tushuntiriladi. Ayniqsa eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun vizual ko'rsatmalar asosiy o'quv manbasi sifatida ishlaydi.

Vizual ko'rsatma texnologiyasi bolaga rasm chizishni mustaqil o'rganish, bosqichlarni aniq ko'rish va takrorlash imkonini beradi. Interfaol texnologiyalar mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan:

- “Rasmni davom ettir”
- “Guruhli kollaj”
- “Erkin rasm”
- “Katta formatli rasm yaratish”

Bu metodlar bolalarning muloqot ko'nikmasini, jamoada ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Emotsional holatni ijobiy o'zgartiradi va stressni kamaytiradi. Art-terapiya — bu emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi texnologiya bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda juda katta samara beradi. Art-terapiyada quyidagi yo'nalishlardan foydalaniladi:

- ranglar terapiyasi



- qum bilan rasm ishlash
- suv rangida erkin bo'yash
- plastilin bilan modellash

Mazkur texnologiya bolalarning hissiy holatini barqarorlashtiradi, o'zini ifodalash imkonini kengaytiradi. Bu texnologiya jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maxsus vositalardan foydalanishni nazarda tutadi:

- qalin dastali cho'tkalar
- ergonomik qalamlar
- tutqichli bo'yoqlar
- stol balandligini moslashtiruvchi moslamalar
- magnitli doskalar
- vertikal rasm chizish panellari

Bunday vositalar bolaning rasm chizish jarayonida qiynalmasligi, qo'l harakatlarini yengillashtirishi va chizish sifatini oshirishi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.F.Adirasulov tasviriy san'at o'qitish metodikasi 9-bet.
2. A. Xoliqov pedagogik mahorat 12- bet
- 3 Raximova N., Qo'ldosheva G. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
- 4 Shomirzayeva M. Inklyuziv ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.